Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24319157

materiallar to'plami

TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNES BOSHQARUVINI RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Andijon mashinasozlik institute, "Axborot texnologiyalari" kafedrasi assistenti
Yuldashev Mirzohid Maxmudjonovich

Annotatsiya: Maqolada tadbirkorlik korxonalarini boshqarishda qo'llaniladigan strategiyalarning metodlari yoritib o'tilgan. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatida strategiyalarni shakllantirish usullari, ularning afzallik tomonlari bayon etilgan. Sohada strategiyani shakllantirish uchun tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion marketing , kichik biznes , kichik biznes subyektlari , bozor , tovar , marketing , korxona , reklama , firma , samaradorlik , raqamli iqtisodiyot , xususiy sektor , mobil va raqamli texnologiyalar , raqamli biznes .

Kirish Mamlakatimizning tadbirkorlik, ishbilarmonlik muhitidagi keskin o'zgarishlar raqobat, axborot texnologiyalari, biznesni globallashuvi va boshqa ko'plab omillarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu boshqaruv strategiyasining ahamiyatini orttirib bormoqda. Bu tadbirkorlik faoliyatidagi beqaror sharoitlarning o'sib borishi bilan firmalarning menejment strategiyasiga e'tiborini kuchaytirmoqda. Strategik boshqaruvtadbirkorlik faoliyatining menejment, marketing, iqtisodiyot, moliyaviy qirralari va axborot texnologiyasini birlashtiruvchi integratsion boshqaruvdir. Strategik boshqaruv doimo rivojlanib boradi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda strategik boshqaruvning yangi usul va uslublarini ishlab chiqish katta ahamiyatga egadir. Uni shakllantirish tamoyillariga asoslanib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalari ishlab chiqiladi. Tadbirkorlik faoliyatidagi quyidagi omillar boshqaruv strategiyasining shakllantirishni dolzarbligini ifodalaydi: - XX asrning ikkinchi yarmida korxona ichki va tashqi muhitidagi o'zgarishlar oqibatida vazifalar soni muttasil oshib bordi. Ularning ko'pchiligi tubdan yangi bo'lib, XX asrning birinchi yarmida orttirilgan tajriba asosida hal etib bo'lmas edi; - bazifalarning ko'pligi milliy iqtisodiyotlar faoliyatining geografik ko'lamini kengaytirish bilan birga boshqaruv muammolarining yanada murakkablashuviga olib keldi; - XX asrning birinchi yarmida orttirilgan boshqaruv ko'nikma va malakalari yuzaga kelgan muammolarni hal qilish shartlariga kamroq mos kelib, yuqori boshqaruv bo'g'inining roli ortib bordi; - tashqi muhitning beqarorligi kuchaydi, bu esa keskin strategik o'zgarishlar ehtimolliligini oldindan bashorat qilib bo'lmasligini oshirdi.

"2022 – 2026 – yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi "da 29 – maqsadi sifatida Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish , xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga etkazish belgilangan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida faol tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirishda kichik biznes va tadbirkorlikda marketing faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyatga egadir . So'ngi yillarda raqamli iqtisodiyot tez suratlarda o'sib bormoqda. Raqamli iqtisodiyotning o'sishi raqamli va mobil texnologiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan texnologiyalar rivojlanishining hozirgi bosqichida va bozorlarning hozirgi holati sharoitida raqamli iqtisodiyotni maqsad sifatida emas, balki iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqish kerak.

Published: 10.11.2023

Cite this article: Yuldashev Mirzohid Maxmudjonovich (2023). Tadbirkorlik va kichik biznes boshqaruvini raqamlashtirishni takomillashtirish. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319157

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Shuning uchun, raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikda marketing faoliyatini rivojlantirish kerak. Raqamli iqtisodiyot – bu siyosiy-iqtisodiy, ilmiy-ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy munosabatlardagi aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo‘llash yordamida amalga oshiruvchi yangi timiz bo‘lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida “raqamli tadbirkorlik” alohida ahamiyat kasb etadi .

Boshqarish amaliyotida eng ko‘p qo‘llanadigan, strategiyani shakllantirishning quyidagi metodlari mavjud: maqsadlarga ko‘ra tanlash; boshqaruvning yuqori darajasiga murojaat qilish va tashkilotga kirmagan konsalting agentliklarini ishga yollash. Strategiyani maqsadlarga ko‘ra tanlashda birinchi galda korxonaning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda strategiyalarning muqobil variantlari shakllantiriladi.

Masalan, tadbirkorlik korxonasining asosiy maqsadi atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘lsa, strategiya variantlarini baholashda shu maqsaddan kelib chiqiladi (masalan, hayvonlarni parvarishlash uchun tovarlar sotiluvchi do‘konlar zanjiri(set)ni tashkil etish). **Boshqaruvning yuqori darajasiga murojaat qilish** usulida shakllantirilgan strategiyalarning bir qator muqobil variantlari alohida baholash uchun oliy boshqaruvga beriladi. Ular harakatning aniq yo‘lini belgilab beruvchi strategiyani tanlaydilar.

Tadbirkorlik faoliyatida strategiyalarni shakllantirishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Sifat (tavsifiy) usullari. Bunda - SWOT tahlil, PEST tahlil, SCP tahlil, muhit yo‘nalishini qurish, kompaniya raqobat profili usullari qo‘llaniladi. Usulning afzalligini qo‘llashning soddaligi, usullardan foydalanish natijalarining aniqligida ko‘rish mumkin.

2. Matritsa usullari. Bunda “Tovarlar-bozorlar” matritsasi (I.Ansoff matritsasi), BKG modeli, Jeneral Elektrik modelidan foydalaniladi.

3. Eng oddiy statistik usullar. Aniqlashda PIMS tahlil, Konan va Golder modeli, ROA modeli, DuPont modelidan foydalnilib, bu korxona faoliyatining eng muhim parametrlarini aniqlashga imkon beradi.

4. Kompleks iqtisodiy-statistik usullar va modellar. Korrelyatsion va regression, variatsion tahlil, vaqt qatorlarining ekstra-polyatsiyasidan foydalanilib, bu korxonaning faoliyati va rivojlanishi haqida juda aniq, ob’ektiv tasavvurni aniqlashga imkon beradi.

5. Biznes qiymatini boshqarish usullari va ko‘rsatkichlaridan foydalanish usuli. Fond bozorida kompaniya aktsiyalarini baholash. Biznesni baholashga daromadli, qiyosiy, xarajatli yondashuvlar asosida aniqlanib, bu yondashuv korxonaning qiymati uzoq muddatli barqaror o‘sishdan manfaatdor bo‘lgan aktsiyadorlar va boshqa investorlar uchun samaralidir.

6. Balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi usuli. Aniqlash jarayonida strategiyani amalga oshirish ko‘rsatkichlarini balanslashgan rang usulidan foydalanilib, bu korxonaning strategik rivojlanishi haqida har tomonlama tasavvurni aniqlashga imkon beradi.

7. Institutsional iqtisodiyot usullari. O‘yin nazariyasi usullari, ommaviy xizmat ko‘rsatish (navbat nazariyasi) kabilardan foydalanilib, afzalligini korxona

strategiyasini boshqa muhim iqtisodiy guruhlarning iqtisodiy manfaatlari va rivojlanish tendentsiyalariga qarab tuza olishda ko‘rish mumkin

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dedajanov B.N. “Menejment”. Darslik. –Toshkent.: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2022. – 580 b.
2. Dedajanov, B. N., & Kholmirzaeva, K. H. (2021). Managerial Effectiveness: Content, Evaluation and Recommendations. Account and Financial Management Journal, 6(5), 2318-2323. https://doi.org/10.47191/afmj/v6i5.01
3. TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA BOSHQARUV STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich, ilmiy maqolasi.